| YASHIL IQTISODIYOTDA TA'LIMNING ROLI.....                                                                                                  | 394 |
| Babayeva Lola Ibragimovna                                                                                                                  |     |
| O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI UCHUN DAVLAT TOMONIDAN YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR.....                                  | 398 |
| Xudoyorov Azizbek Avaz o'g'li                                                                                                              |     |
| OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI YAXSHILASHNING XORIY TAJRIBASI.....                                                             | 404 |
| Safarov Sh. S.                                                                                                                             |     |
| IJTIMOYIY MENEJMENTDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: XALQARO TAJRIBA VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI.....              | 408 |
| G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li, Davronova Farangiz                                                                                        |     |
| «ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ФИНАНСОВЫЙ КОНТРОЛЬ: КАЗНАЧЕЙСКИЙ КОНТРОЛЬ В БЮДЖЕТНОМ ПРОЦЕССЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО РАЗВИТИЯ» .....                         | 415 |
| Файзуллаева Зилола Равшановна, Д.Х. Пулатов                                                                                                |     |
| YANGI O'ZBEKISTONDA YASHIL RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING ASOSIY JIHATLARI.....                                                          | 421 |
| Urozoza Shaxlo Hasan qizi, Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li                                                                              |     |
| OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH MASALALARI: XALQARO TAJRIBA VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI .....                  | 427 |
| Safarov Shoxrux Sattor o'g'li                                                                                                              |     |
| PROSPECTS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF HUMAN RESOURCES IN UZBEKISTAN.....                                                               | 431 |
| Alimardonova Gulfizoda Alimardon kizi                                                                                                      |     |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA KAPITAL QO'YILMALAR HISOBINI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.....                                                  | 434 |
| Egamberdiyeva Salima Rayimovna                                                                                                             |     |
| QASHQADARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA ISTIQBOLLARI .....                                             | 441 |
| Berdimurodova Farzona Bahodir qizi, Sh. Xolliyev                                                                                           |     |
| SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES VA IQTISODIYOTDAGI ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI .....                                              | 446 |
| Davronova Farangiz Ilhom qizi                                                                                                              |     |



|                                                                                                                                                         |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA PUL VA BANK TIZIMLARINI TASHKIL ETISHNING ISTIQBOLLARI HAMDA AHAMIYATI .....                                 | 452 |
| Axtamova Ozoda Ulug'bek qizi, Cho'liyeva Gulsanam Yulchi qizi, G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li                                                          |     |
| O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI: TARKIBIY O'ZGARISHLARNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI .....                                                                       | 460 |
| N. Qo'ziboyeva                                                                                                                                          |     |
| O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI TARKIBIY O'ZGARISHLAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI.....                                                                | 466 |
| Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li                                                                                                                        |     |
| QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZM KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY INTEGRATSIYA.....                                                              | 470 |
| Xushvaqtov Ramziddin                                                                                                                                    |     |
| ILMIY SALOHİYAT VA OLIY TA'LIM SIFATINING UZVIY BOG'LIQLIGI: TAHLIL VA TAVSIYALAR .....                                                                 | 476 |
| Muratov A'zam Alisher o'g'li, Ochilov Akram Odilovich                                                                                                   |     |
| YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: GREEN CREDIT .....                                                                                   | 480 |
| Eshtemirova Ma'rifat Akram qizi, Kabilova Shaxnoza Jurayevna                                                                                            |     |
| DEHQON XO'JALIGI MAHSULOTLARI NARXLARINING DINAMIKASI VA BOZOR MUVOZANATI MODELLARINI QO'RISH. ....                                                     | 483 |
| Ergashov Yashnarbek Istamovich                                                                                                                          |     |
| The Role of Renewable Energy in the Green Economy.....                                                                                                  | 488 |
| Khudoyberdiyeva Olima, Yakhshikulova Mokhinur                                                                                                           |     |
| O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish: asosiy muammolar va imkoniyatlar .....                                                                       | 494 |
| Jumanazarov Asilbek Utkirbek o'g'li, Ulug'bek Eshmaxmatov                                                                                               |     |
| SANOAT KORXONALARINING RAQOBAT USTUNLIGI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASH OMILLARI .....                                                       | 498 |
| Ro'ziqulov Jamshid Ulug'bek o'g'li                                                                                                                      |     |
| O'ZBEKISTONDA INSON RESURLARINI BOSHQARISH SIYOSATINING ZAMONAVIY TRENDLARI HAMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....                                        | 504 |
| Shodiyev Jahongir                                                                                                                                       |     |
| YASHIL IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....                                                                             | 509 |
| Babayeva Lola Ibragimovna, Sh. S. Sa'dullayev                                                                                                           |     |
| QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA MAHSULOTLAR INTENSIV RIVOJLANISHINI TA'MINLASH JARAYONLARI .....                                                             | 512 |
| Saburov Jumanazar Salievich                                                                                                                             |     |
| SUG'URTA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI VA MEXANIZMLARI.....                                                                              | 516 |
| E.Sobirov                                                                                                                                               |     |
| "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH ORQALI TABIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA IQTISODIY FAOLIYATNING ATROF-MUHITGA SALBIY TA'SIRINI KAMAYTIRISH ..... | 520 |
| Xo'janova Gulshoda Otamurodovna                                                                                                                         |     |
| QISHLOQ JOYLARDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI .....                                                           | 526 |
| Dilafroz Taylakova                                                                                                                                      |     |
| KORXONALARDA EKOLOGIK INVESTITSION LOYIHALARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI TAHLILI.....                                                         | 532 |
| Ulashov Aliboy Rashid o'g'li                                                                                                                            |     |
| YURTIMIZDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK VA MOLIYAVIY TIZIMLAR UCHUN YANGI IMKONIYATLAR TAHLILI HAMDA KELGUSIDAGI ISTIQBOLLARI .....              | 538 |
| G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li, Alarov Asilbek Oybek o'g'li                                                                                            |     |
| SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK BARQARORLIGI VA EKOLOGIK IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH MASALALARI.....                                                    | 545 |
| O'rinov Diyor, Xolliyev Sh.B.                                                                                                                           |     |



|                                                                                                                                             |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| YASHIL IQTISODOYOT VA UNDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR.....                                                                                    | 549 |
| Ermuminov Elbek Erkin o'g'li, Yaxshiqulova Moxinur Toxir qizi                                                                               |     |
| XIZMATLAR SOHASIDA KADRLARNING TUTGAN O'RNI .....                                                                                           | 553 |
| Turayeva Nargiza Rustamovna                                                                                                                 |     |
| IQTISODIYOTDA TARKIBIY O'ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISHNING USTUVOR<br>YO'NALISHLARI .....                                                    | 557 |
| G.P.Erkayeva, N.H.Qo'ziboyeva                                                                                                               |     |
| YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING AHAMIYATI VA O'ZBEKISTONDA YASHIL<br>IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI .....                                | 560 |
| Samadova Jasmina Sherali qizi, Sh. Xolliyev                                                                                                 |     |
| "YASHIL" ENERGETIKA VA "YASHIL" IQTISODIYOT.....                                                                                            | 564 |
| Qarshiyeva Dilsora Ismoil qizi, Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li                                                                          |     |
| MAMLAKAT BUDJETINING SHAKLLANISHI VA DAROMADLAR TAQSIMOTINING<br>IQTISODIYOTDAGI ROLI .....                                                 | 569 |
| Ashirqulova Sevinch Sarvar qizi, Sh. Xolliyev                                                                                               |     |
| O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI<br>RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....                                           | 574 |
| Urozova Shahlo Hasan qizi, Rahmonova Tillaoy Malik qizi                                                                                     |     |
| "YASHIL" IQTISODIYOT INNOVATSION RIVOJLANISHINING KO'RSATGICHLARI.....                                                                      | 579 |
| Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, Usmonov Murodjon Dusmurot o'g'li                                                                            |     |
| XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TARTIBGA SOLISHNING<br>NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....                                 | 583 |
| Mirzayev Qulmamat Djonuzoqovich, Mirzayev Azzamjon Jonuzokovich, Eshquvvatova Nodira Abdullayevna                                           |     |
| INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA IQTISODIY<br>RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....        | 588 |
| Mirzayev Qulmamat Djonuzoqovich, Eshquvvatova Nodira Abdullayevna                                                                           |     |
| СТРАТЕГИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНА:<br>РОЛЬ ИННОВАЦИЙ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО КАПИТАЛА В ЭПОХУ НООНОМИКИ.....                | 593 |
| Чекулаева Кристина                                                                                                                          |     |
| МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБЕСПЕЧЕНИЮ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ<br>ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ<br>ЭКОНОМИКЕ..... | 599 |
| Чекулаева Кристина                                                                                                                          |     |
| YASHIL IQTISODIYOT – MAMLAKAT TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILI.....                                                                             | 605 |
| Oybek Hamdamov, Qosimov Jahongir                                                                                                            |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALI SIFATINI OSHIRISHDA<br>TA'LIMNING AHAMIYATI .....                                             | 608 |
| M.Ostanova, Ro'ziyev Ramshid                                                                                                                |     |
| MODERN LEGAL BASIS FOR THE EFFICIENT USE OF FINANCIAL RESOURCES IN HIGHER<br>EDUCATION INSTITUTIONS IN OUR COUNTRY .....                    | 613 |
| Ismoilova Gulrux, Khayriddinov Shukhrat Botirovich                                                                                          |     |
| YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA TABIIY - IQTISODIY<br>MANBAALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY MEXANIZMI .....        | 617 |
| Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li, Mavlonova Surayyo Xasan qizi                                                                           |     |
| YANGI O'ZBEKISTONDA SOHALARNI RAQAMLASHTIRISH SAMARADORLIGI .....                                                                           | 621 |
| Gulrux Arslon qizi Ismoilova                                                                                                                |     |



# “YASHIL” ENERGETIKA VA “YASHIL” IQTISODIYOT

**Qarshiyeva Dilsora Ismoil qizi**

Qarshi davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Email: ismoilovnadilsora@gmail.com

Ilmiy rahbar:

**Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li**

Qarshi davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

Email: shahbozhazratqulov@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Yashil energetika va yashil iqtisodiyot” mavzusida mamlakatimizda cheklangan va qayta tiklanmaydigan resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash hamda energiya samaradorligini oshirishga doir muhim ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, yashil energetika va yashil iqtisodiyotning iqtisodiy va ekologik ahamiyati tahlil qilinadi. Mazkur sohaga oid qayta tiklanuvchi energiya manbalarining o'rni va ularning global energiya bozoridagi ahamiyati ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Energiya, yashil iqtisodiyot, yashil energetika, qayta tiklanuvchi manbalar, atrof-muhit, tadqiqot, barqarorlik, strategiya.

**Abstract:** This article presents important insights into the rational use of limited and non-renewable resources in Uzbekistan within the context of green energy and the green economy. It highlights the need to ensure sustainable economic development and improve energy efficiency. Additionally, the article analyzes the economic and environmental significance of green energy and green economy. The role of renewable energy sources in this sector and their position in the global energy market are also examined.

**Key words:** Energy, green economy, green energy, renewable resources, environment, research, sustainability, strategy.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы рационального использования ограниченных и невозобновляемых ресурсов в Узбекистане в контексте зелёной энергетики и зелёной экономики. Освещается важность обеспечения устойчивого экономического развития и повышения энергоэффективности. Также анализируется экономическая и экологическая значимость зелёной энергетики и зелёной экономики. В статье рассматривается роль возобновляемых источников энергии в этой сфере и их значение на мировом энергетическом рынке.

**Ключевые слова:** Энергия, зелёная экономика, зелёная энергетика, возобновляемые источники, окружающая среда, исследования, устойчивое развитие, стратегия.

## KIRISH

Bugungi voqelikda iqtisodiy farovonlik tobora ekologik toza, resurslarni tejaydigan texnologiyalar va yondashuvlarni joriy etishga bog'liq bo'lib bormoqda. Aholi sonining izchil o'sishi va tabiiy resurslarning muntazam kamayib borayotgani sharoitida, bu yondashuv dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, “yashil” iqtisodiyotga o'tish bir qator afzalliklarga ega: u nafaqat inson farovonligini yaxshilaydi va ijtimoiy adolatni ta'minlaydi, balki ekologik xavflarni ham sezilarli darajada kamaytiradi.

Ma'lumki, 2019-yilda O'zbekiston Respublikasida “Yashil iqtisodiyot”ga o'tish strategiyasi qabul qilindi. Ushbu strategiyada yaqin o'n yillikda uglerod chiqindilarini keskin kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik toza va resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Yashil energiya – bu atrof-muhitga deyarli zarar yetkazmasdan ishlatilishi mumkin bo'lgan energiya manbalarini o'z ichiga oladi. Bular qatoriga anaerob hazm qilish, geotermal energiya, shamol energiyasi, kichik gidroenergetika, quyosh energiyasi, biomassa va to'lqin energiyasi kiradi. Ba'zi ta'riflarda esa yondirilishi mumkin bo'lgan chiqindilardan olingan quvvat ham yashil energiya tushunchasiga kiritiladi.





## ADABIYOTLAR SHARHI

“Yashil iqtisodiyot”ga asoslangan barqaror rivojlanishni ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy jihatdan chuqur o’rganilgan. Xususan, xorijiy iqtisodchilar A. Atkinson, A. Shtayner, R. Ayris, S. Bessa, K. Burkart, Z. Kiis, R. Fuchs kabi olimlarning tadqiqotlari ushbu sohadagi ilmiy yondashuvlarni yanada boyitdi [1, 2, 3, 4]. “Jigarrang iqtisodiyot”dan “yashil iqtisodiyot”ga o’tish tamoyillari, shuningdek, milliy dasturlarni moliyalashtirish mexanizmlari S.N. Bobylev, V.D. Kalner, V.A. Polozov, S.A. Lipina, E.V. Agapova, A.V. Lipina va V. Sidorovich kabi olimlar asarlarida keng tahlil qilingan [5, 6, 7, 8].

Mamlakatimizda “yashil energiya”ni rivojlantirish zarurati, mavjud holati, tarkibi va dolzarb muammolari O’zbekistonlik iqtisodchilar – X. Xajibakiev, A.V. Vaxabov, Sh.A. Toshmatov, T.K. Iminov, T.Z. Teshaboev va M.T. Butaboev tomonidan ilmiy muhokamaga olingan [9, 10].

Mashhur ingliz iqtisodchisi Artur Pigu o’zining “Sanoat tebranishlari” (*Industrial Fluctuations*, 1929) asarida tashqi ta’sirlarni neytrallashtirish nazariyasini asoslab, uglevodorod chiqindilariga to’g’ridan-to’g’ri soliq joriy etishning iqtisodiy samaradorligini yoritgan.

O’zbekistonda bu yo’nalishda so’nggi yillarda muhim huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda qabul qilingan “2030-yilgacha O’zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o’tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-436-son qarori [1], shuningdek, 2023-yil 16-fevralda “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-57-sonli qaror [2] qabul qilingan. Ushbu qarorlar asosida amaliy ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asosini mahalliy va xorijiy olimlarning “yashil iqtisodiyot” va qayta tiklanuvchi energiya resurslariga oid ilmiy izlanishlari, shuningdek, Xalqaro energetika agentligi (IEA)ning ma’lumotlari hamda Prezident qarorlari va hukumat dasturlarining huquqiy asoslari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida qayta tiklanadigan energiya manbalarining iste’molini tahlil qilishda induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, turli xalqaro va nodavlat tashkilotlar metodologiyalarini qiyosiy tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Ma’lumotlar taqdimotida jadval va grafikalar qo’llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

“Yashil iqtisodiyot” tushunchasi birinchi marta 1989-yilda ilmiy tadqiqotlarda qo’llanilgan. Yashil iqtisodiyot – bu iqtisodiy tizim bo’lib, uning asosiy maqsadi sayyoramiz ekologiyasini saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyot inson hayoti va sog’ligi uchun zarur bo’lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda muhofaza qilgan holda ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalarini bog’liq iqtisodiyotni rivojlantirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo’nalishi sifatida tushuniladi [9].

Ba’zi manbalarda “yashil iqtisodiyot” iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida ko’rsatiladi. Bunday hollarda, “yashil iqtisodiyot” mamlakatning tabiiy resurslarini asrash, ularni ilmiy tadqiqotlar asosida o’rganish va foydali texnologiyalar asosida ekotizimni barqarorlashtirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Ba’zi tadqiqotlarda esa “yashil iqtisodiyot” ekologik toza mahsulotlar yaratishga qaratilgan rivojlanishning yangi bosqichi deb hisoblanadi, uning asosi esa toza yoki “yashil” texnologiyalarni joriy etishdan iborat. Bunday yondashuvga ko’ra, yashil iqtisodiyot odamlarning farovonligini va ijtimoiy tenglikni oshirish, shuningdek, ekologik xavf va tanqislikni sezilarli darajada kamaytirishga qaratilgan iqtisodiyotni anglatadi.

Yashil iqtisodiyot uchta ustunga asoslanadi – insoniyat, foyda va sayyora. Iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan sog’lom jamoalar sog’lom ishchi kuchi bilan ta’minlangan bo’lishi zarur. Har uchala ustun birgalikda iqtisodiy va ekologik barqarorlikni, shuningdek, ijtimoiy farovonlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) ma’lumotlariga ko’ra, dunyoda 2030-yilga qadar “yashil iqtisodiyot” doirasida 24 million yangi ish o’rni yaratilishi mumkin. Bu ish o’rinlari, asosan, energetika sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish, elektromobillardan foydalanishni kengaytirish va binolarning energiya samaradorligini oshirish hisobiga shakllanadi.

XMT ta’rifiga ko’ra, “yashil” ish o’rinlari – bu an’anaviy iqtisodiyot tarmoqlarida (masalan, ishlab chiqarish va qurilish) yoki yangi tarmoqlarda (qayta tiklanadigan energiya, energiya samaradorligi) atrof-muhitni saqlab qolish yoki tiklashga xizmat qiluvchi munosib ish o’rinlaridir. Ular quyidagi muammolarni hal etishga ko’maklashadi (1-jadval):

- energiya va xom-ashyodan foydalanish samaradorligini oshirish;
- issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish;



chiqindilarni kamaytirish va atrof-muhitni ifloslantirishni cheklash;  
ekotizimlarni saqlash va tiklash;  
iqlim o'zgarishlariga moslashuvni ta'minlash.

1-jadval. Yashil ish o'rinlari asosiy yo'nalishlari.

| Asosiy ma'lumotlar                                                              | Tafsilotlar                                                                                                                                                                                |
|---------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Yangi ish o'rinlari (dunyoda 2030-yilgacha)                                     | 24 million yangi ish o'ri yaratiladi, asosan energetika, elektromobil, va bino samaradorligi sohasida.                                                                                     |
| Yashil ish o'rinlari ta'rifi                                                    | An'anaviy va yangi iqtisodiyot tarmoqlaridagi atrof-muhitni saqlash yoki tiklashga xizmat qiluvchi ish o'rinlari.                                                                          |
| Yashil ish o'rinlari asosiy yo'nalishlarida energiya va xom-ashyo samaradorligi | Energiya va xom-ashyo samaradorligini oshirish, issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish, chiqindilarni kamaytirish, ekotizimlarni tiklash, iqlim o'zgarishiga moslashuvni ta'minlash. |

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit Dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan "yashil" ish o'rinlari konsepsiyasiga ko'ra, bu faoliyatlar quyidagi asosiy maqsadlarga xizmat qiladi:

issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish;  
resurslardan oqilona foydalanish;  
bioxilma-xillik va ekotizimlarni asrab-avaylash;  
ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish.

Yaqin kelajakda qayta tiklanadigan energiya texnologiyalari global energetika muammosini to'liq hal eta olmasligi mumkin, ayniqsa antropogen iqlim o'zgarishlari va global isish kontekstida. Hozirda ko'plab yetakchi davlatlar katta aholi punktlari, korxonalar va yirik sanoat markazlari uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarini faol qo'llashmoqda. Bu manbalar energiyani muntazam va barqaror ishlab chiqarishga qodir bo'lib, muqobil manbalar sifatida xizmat qilmoqda.


O'zbekiston sharoitida esa, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ayniqsa chekka va borish qiyin hududlar, qishloq obyektlari uchun kichik quvvatli energiya ishlab chiqarishni ta'minlashi mumkin. Ayni paytda, bunday manbalar qayta tiklanmaydigan energiya manbalari bilan to'ldirilishi talab etiladi.

2000-yillar oxiridan boshlab, global miqyosda qayta tiklanuvchi energiya umumiy ulushi keskin oshdi. Masalan, 2017-yilga kelib ularning global energiya tizimidagi ulushi deyarli 1 foizdan 25 foizgacha oshgani qayd etilgan. Bu esa, dunyo miqyosida "yashil" energetikaga bo'lgan ehtiyoj va e'tibor ortib borayotganini ko'rsatadi.

Xususan, 1990-yildan 2017-yilgacha bo'lgan davrda turli mintaqalarning umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlari o'zgarib borgan. Grafikdagi ma'lumotlarga ko'ra, 1990-yilda global iqtisodiy faoliyat o'rtacha 170–180% atrofida bo'lgan. Ushbu davrda Yevropa, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH), Osiyo, Tinch okean mintaqasi, Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi, Afrika va Yaqin Sharq mintaqalari iqtisodiy faollik darajasi bilan o'zaro solishtirilgan. 1990-yillarning boshidan 2005-yilgacha bo'lgan davrda umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarda nisbatan barqarorlik yoki ozgina pasayish kuzatilgan. Ayniqsa, 1998–2000-yillar oralig'ida iqtisodiy faollikning biroz pasaygani ko'rinadi.

2005-yildan so'ng esa global iqtisodiy faollik asta-sekin o'sishni boshlagan. Biroq 2008-yilda yuz bergan global moliyaviy inqiroz tufayli umumiy ko'rsatkichda qisqa muddatli pasayish kuzatiladi. 2009-yildan boshlab iqtisodiy ko'rsatkichlar yana tiklanib, o'sish sur'atlari tezlashgan. 2017-yilga kelib, global iqtisodiy faollik darajasi 210–220% atrofida bo'lib, 1990-yil darajasidan ham ancha yuqorilagan.

Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda, Shimoliy Amerika va Osiyo mintaqalari eng yuqori iqtisodiy faoliyat ko'rsatgan mintaqalar sifatida ajralib turadi. Xususan, Osiyoning ulushi 2000-yildan keyin keskin oshgan, bu esa mintaqaning global iqtisodiyotdagi ahamiyatining ortayotganini ko'rsatadi. Yevropa va MDH mintaqalari o'z ulushlarini nisbatan barqaror saqlab qolgan bo'lsa-da, ularning hissasi dastlabki yillarga nisbatan biroz kamaygan. Afrika, Lotin Amerikasi va Yaqin Sharq mintaqalari umumiy iqtisodiy faoliyatda kichik ulushga ega bo'lgan, ammo 2010-yildan keyin ularning ulushi ham oz-ozdan oshib borgan. Tinch okean mintaqasi esa butun davr davomida barqaror darajada iqtisodiy faollik ko'rsatgan.



1-rasm. Dunyoda qayta tiklanuvchi energiya manbalari 1990–2017-yillar oralig'ida izchil o'sish tendentsiyasini namoyon etdi<sup>1</sup>.

Umuman olganda, 1990–1998-yillarda iqtisodiy faollikda ozgina pasayish, 1999–2008-yillarda barqarorlik va o'sish, 2008-yilda qisqa muddatli inqiroz ta'sirida pasayish va 2009–2017-yillarda esa kuchli tiklanish kuzatilgan. Natijada 2017-yilga kelib global iqtisodiy faollik 1990-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Osiyo va Shimoliy Amerika mintaqalari bu o'sishga asosiy hissa qo'shgan bo'lsa, Afrika va Lotin Amerikasi ham o'z iqtisodiy ulushlarini sekin-asta kengaytirgan. 2008-yil inqirozi qisqa muddatli bo'lsa-da, keyinchalik global iqtisodiy faoliyatning yanada kuchli o'sishiga turtki bo'lgan (1-rasm).

Quyosh stansiyalari 2017-yilda qo'shimcha elektr energiyasining 20 foizini, shamol fermalari esa 30 foizini tashkil etgan. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari hozirda Yevropada umumiy iste'molning 1/3 qismini, Xitoyda 1/4 qismini, AQSh, Hindiston va Yaponiyada esa 1/6 qismini qamrab oladi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o'tish strategiya yoki dasturlar doirasida maqsadli siyosat yuritishni talab etadi. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan siyosat o'zining ta'sir mexanizmlariga ega bo'lib, mahsulot miqdorining 18 martadan ko'proqqa ortishiga olib kelgan. Dunyo aholisi sonining ko'payishi va iqtisodiy o'sish natijasida atrof-muhitga tushayotgan yuk ortib bormoqda. So'nggi yuz yillikda aholi sonining keskin o'sishi va iqtisodiy faollikning kuchayishi oqibatida dunyo okeanlarining oksidlanish darajasi 1,2 baravarga (2000-yilda 1900-yilga nisbatan), tropik o'rmonlarning qisqarish darajasi 6 baravarga, uglerod oksidi chiqindilari esa 1,5 baravarga oshgan. Iqlim o'zgarishlariga sabab bo'layotgan ushbu jarayonlar o'rta muddatli istiqbolda jiddiy ekologik va iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

“Yashil iqtisodiyot”ga o'tish har bir mamlakat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon tabiiy kapital, inson kapitali hamda mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi omillarga bevosita bog'liqdir. Shu sababli, mazkur jarayon uchun qulay muhit – ya'ni huquqiy infratuzilma, rag'batlantiruvchi omillar va boshqa zaruriy shart-sharoitlar yaratilishi muhim sanaladi. Agar milliy darajada investitsiyalar, davlat xaridlari va boshqa iqtisodiy instrumentlar “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga yo'naltirilsa, iqtisodiy tizimni “yashillashtirish” jarayoni sezilarli darajada tezlashadi.

O'zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o'tish va yashil loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha qator amaliy choralar ko'rilmogda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-oktabrda qabul qilingan “Milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 561-son qaroriga muvofiq, “yashil” obligatsiyalar, kreditlar hamda boshqa moliyaviy manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarni tasniflash tajriba tariqasida Milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasi asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, davlat moliyaviy ko'magidan (subsidiyalar, grantlar, kredit liniyalari, kafolatlar va boshqalar) foydalanuvchi barcha tadbirkorlik subyektlarining, shu jumladan, xususiy va davlat ishtirokidagi xo'jalik birlashmalarining investitsiyaviy xarajatlari mazkur taksonomiyaga asosida baholanadi va ular tomonidan mas'ul respublika ijro hokimiyati organlariga tegishli ma'lumotlar taqdim etilishi belgilangan.

1 <https://staff.tiame.uz/storage/users/293/books/zWEbrryATb9DDtEQVfV577vzQGAKSEIBwaggJjUc.pdf>



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyotga o'tish maqsadlarini qo'llab-quvvatlovchi yashil moliyaviy instrumentlardan foydalanish hajmini oshirish orqali rejalashtirilgan moliyaviy barqarorlikka erishish, shuningdek, global muammolarni mamlakat miqyosida bartaraf etish imkoniyati yaratiladi.

Har bir davlat o'zining geografik imkoniyatlari va tabiiy resurslarini inobatga olgan holda yashil energetika hamda yashil iqtisodiyotga oid aniq strategiyalarni ishlab chiqishi lozim. Mazkur sohalarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarga sarmoya kiritish, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va ularning joriy etilishini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarur.

Yashil energetika loyihalariga investitsiyalarni jalb etish maqsadida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng qo'llash, shuningdek, Xalqaro Energetika Agentligi (IEA), Xalqaro Quyosh Alyansi (ISA) va BMTning barqaror rivojlanish dasturlari doirasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish muhim hisoblanadi. Bu bilan bir qatorda, rivojlanayotgan mamlakatlarga o'tish davrida texnik va moliyaviy yordam ko'rsatish, aholiga qayta tiklanadigan energiya manbalarining ahamiyatini tushuntirish, ularni yashil texnologiyalardan foydalanishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, yashil energetika barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. U nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki energiya xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash orqali barqaror kelajak sari yo'l ochadi.

Xulosa qilib aytganda, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning asosiy maqsadi – mavjud qimmatli resurslar zaxirasini kamaytirmaslik, issiqxona gazlari chiqindilarini cheklash, tuproq eroziyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik va energiyani samarasiz ishlab chiqarmaslikdan iborat. Qayta tiklanadigan energiya manbalari aylanma va davriy tabiiy jarayonlarga asoslangan bo'lib, inson faoliyati natijasida yaratilgan resurslardan farq qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son . <https://lex.uz/docs/-6303230>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'Yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida"gi PQ-4477-sonli qarori. <https://www.lex.uz>
3. Vaxobov A.V., Xajibakiev Sh.X. Yashil iqtisodiyot, darslik. – B. 78.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik axboroti ma'lumotlari milliy bazasi: <https://www.lex.uz>
6. World Energy Outlook – International Energy Agency. <https://www.iea.org/report/world-energy-outlook>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: <https://president.uz/uz/lists/view/6846>
8. Zokirov Sh. "Vozobnovlyaemaya energiya dlya ustoychivogo razvitiya." // Ekonomicheskoe obozrenie, 2020, №12(240), – S. 44–51.





## **IQTISODIYOT & TARAQQIYOT**

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

### **2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>